

## Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025- yil yanvar-noyabr oylari uchun


- I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra viloyatda 2 918 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 618 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,2 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 575 tasi (19,7 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 284 tasi (9,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 252 tasi (8,6 %) kiyim ishlab chiqarishga, 242 tasi (8,3 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 188 tasi (6,4 %) mebel ishlab chiqarishga, 171 tasi (5,9 %) to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

#### Korxonalar soni

1- dekabr holatiga ko'ra



## II. Qashqadaryo viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda korxonalar tomonidan 40 860,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,9 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>40 860,9</b>	<b>106,9</b>
Qarshi sh.	4 455,1	104,8
Shahrisabz sh.	721,6	103,1
tumanlar:		
G'uzor	4 156,7	104,6
Dehqonobod	1 020,4	104,0
Qamashi	756,3	101,2
Qarshi	1 994,5	100,7
Koson	1 572,1	107,8
Kitob	1 594,2	103,4
Mirishkor	973,6	109,2
Muborak	1 168,4	114,1
Nishon	11 690,2	115,2
Kasbi	1 918,1	102,9
Ko'kdala	250,7	101,7
Chiroqchi	780,1	103,5
Shahrisabz	992,1	106,5
Yakkabog'	894,8	100,2

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (67 930,2 ming so'm), G'uzor tumanida (18 166,5 ming so'm), Qarshi shahrida (14 705,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 136,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, Nishon tumanida (112,6 %), Muborak tumanida (112,0 %), Mirishkor tumani (107,0 %), Koson tumani (105,3 %), Shahrisabz tumanida (104,7 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-noyabr oylarida**




**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 33 213,2 mlrd, so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,3 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1 513,2 mlrd, so'm (3,7 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 5 902,8 mlrd so'm (14,4 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 231,8 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida



### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 32,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 52,2 % ga ko'paygan), 54,2 ming tonna ip kalava (3,3 % ga ko'paygan), 183,9 ming tonna kaliy xlorid (1,9 % ga ko'paygan) hamda 1 265,9 ming litr aroq mahsulotlari (67,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr*	2025- yil yanvar-noyabr*
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	28,6	21,2	33,9
ip kalava, ming tonna	52,6	55,5	54,5
Aroq, ming litr	1 937,5	1 945,1	1 265,9
Kaliy xlorid, ming t.	177,6	199,9	202,3
Dizel yoqilg'isi, ming t.	363,3	348,1	481,7
Poliyeten, ming t.	120,1	125,1	123,6
Neft, ming t	10,2	10,2	8,4
Tabiiy gaz, mln kub.m.	76,1	266,6	390,6
Gaz kondensati, ming t.	96,4	98,8	107,0
Portlandsement, ming t.	1 509,2	1 407,5	1 699,8

*\*2024-2025- yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


**. Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,6 % (2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,5 % (2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 83,6 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 % ni (2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 1,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 19,2 % (17,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 42,7 % (29,0 %), quyi texnologiyali 36,8 % (52,5%) ni tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 78,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr*	2025- yil yanvar-noyabr*
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	7 430,9	7 090,6	5538,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 037,3	3 128,1	2 909,9

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 13,2 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 62,8 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr*	2025- yil yanvar-noyabr*
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	105 873,5	131 847,8	149 192,9
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	8 814,6	11 349,3	18 480,4

\*2024-2025- yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 509,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35,4 % ni tashkil etgan.





## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://www.qashstat.uz/uz/>

---

#### Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

#### Manzil:

180100, Qashqadaryo viloyati,  
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy  
75 221-32-36 (7010)

---